



SO‘Z MA‘NOLARI FARQLANISHI

Ruziyeva Charos Dilmurod qizi

Navoiy davlat universiteti 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15171917>

ARTICLE INFO

Received: 31th March 2025

Accepted: 4th April 2025

Published: 8th April 2025

KEYWORDS

leksik birlik, lug‘aviy va grammatik ma‘no, dennotativ, konnotativ ma‘no.

ABSTRACT

Maqolada o‘zbek tilidagi so‘zlar va ularning ma‘nolari, ma‘no turlari, o‘rganish usullari va ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy ishlar haqida ma‘lumotlar berilgan

Borliqda mavjud bo‘lgan barcha narsa-hodisalar inson ongida ma‘lum tushuncha va ushbu tushunchani ifodalovchi leksik birlik orqali aks etadi. So‘z va uning ma‘nolari bir-biridan farqlangani holda ularning kommunikatsion vaziyatda qo‘llanishi, adresat hamda adresantning nutqiy maqsadini belgilash, matn mazmunini to‘g‘ri anglashda muhim omil sanaladi. So‘z ma‘nolarini farqlash tilshunoslikdagi muhim jarayonlardan biri bo‘lib, so‘zning semantik strukturasi tahlil qilish, sinonimiya, antonimiya, polisemantik ma‘nolar va boshqa leksik munosabatlarni o‘rganish orqali amalga oshiriladi. So‘zning ma‘nosi tilshunoslikda eng keng muhokama qilingan va katta munozaralarga sabab bo‘layotgan masalalardan biri hisoblanadi.¹ Ushbu mavzu semantika, leksikologiya va pragmatika kabi lingvistik sohalarda keng o‘rganilgan. Xususan, jahon tilshunos olimlari N.Trubetskoy, R.Yakobson, L.Vitgenstien, A.Potebnya, Ch.Fitmore ilmiy ishlarida so‘z ma‘nolarini o‘rganish uchun turli yo‘llardan foydalanishgan. O‘zbek tilshunosligida Z.Mamarajabova tilimizdagi sifatlarning semantik va konnotativ xususiyatlarini o‘rganib, so‘z ma‘nolari o‘rtasidagi semantik bog‘lanishlarni tahlil qilgan. M.Fayzullayev esa sinonimiya va graduonimiya o‘rtasidagi semantik munosabatlarni o‘rgangan. H.Nig‘matov va N.Shirinovalarning olib borgan tadqiqotlari so‘z bog‘lanishi hamda leksik ma‘nolarni o‘rganishga katta hissa qo‘shgan.

Tilshunoslikda so‘zning turli ko‘rinishdagi ma‘nolarini tavsiflash uchun lug‘aviy hamda grammatik ma‘no ishlatiladi. Ular leksik birliklarning qanday ma‘no anglatishini aniqlashda asosiy tushunchalardir. Lug‘aviy ma‘no so‘zning asosiy semantik mazmunidir. Grammatik ma‘no esa so‘zning grammatik shakli yoki kontekstda boshqa so‘zlar bilan munosabatlaridan kelib chiqadigan ma‘nosidir. Masalan, "Yomg‘ir yog‘di" gapida *yomg‘ir* so‘zining lug‘aviy ma‘nosi – suv bilan bog‘liq tabiat hodisasini ifodalasa, grammatik ma‘nosi esa ot so‘z turkumi, gapda ega vazifasida kelayotganini ifodalaydi. Bu ikki ma‘no birgalikda so‘zning tilda qanday semantik, grammatik munosabatga kirishishini to‘liq anglashga yordam beradi.

So‘z ma‘nolarini farqlashda boshqa tushunchalar ham ishtirok etadi. Ular:

1. Dennotativ ma‘no: So‘zning aniq, lug‘aviy ma‘nosi, ya‘ni u bildirgan predmet yoki hodisa → *quyosh – osmon jismi.*

¹ Qo‘chqortoyev I. So‘z ma‘nosi va uning valentligi. – Toshkent: Fan, 1978. – B.168; O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981.

2. Konnotativ ma'no: So'zning qo'shimcha hissiy, uslubiy yoki ijtimoiy ma'nosi → *Onam, mening quyoshimsiz* – quyosh singari issiq mehrli ma'nosida.
3. Polisemiya → Bir so'zning bir nechta o'zaro bog'liq ma'nolarga ega bo'lishi → *bosh* – odamning tana a'zosi, ko'chaning boshi.
4. Sinonimiya, antonimiya: So'zlarning yaqin yoki qarama-qarshi ma'noda ishlatilishi → *quvnoq-jahldor, chiroyli-go'zal*.
5. Kontekstga bog'liq holda: So'zning ma'nosi u qatnashgan gap yoki matn doirasida o'zgarishi → *Bu jamoa talabalarining eng qaymog'ini tanlab oldi. Qaymoq* – ijobiy ma'noda eng yaxshisini ifodalab kelgan. Aslida, ovqat ma'nosini bildiradi.

So'zning ma'nosini farqlash muloqot jarayonida ham, badiiy asar, turli mazmundagi matn mutolaasida ham – barcha til bilan bog'liq vaziyatlarda asosiy predmet sanaladi. Biz bu jarayonni sinonim, antonimlar, kontekstning komponental tahlili (so'zning semantik xususiyatlarini ajratish) hamda Freym nazariyasi (so'z ma'nosini bog'liq kontekst va nazariyalar orqali o'rganish) yordamida ilmiy xulosalar berishimiz mumkin.

So'z ma'nolarini farqlashda tilshunos olimlar tomonidan leksik birliklarni so'z turkumlariga hamda ularning har xil: mustaqil, nomustaqil, deytik-signifikativ kabi guruhlariga ajratilishi ham so'zning ma'no muammosi bilan uzviy bog'langan. Chunki olimlarning fikricha, so'zlarni turkumlash asosi sifatida semantik-ma'noviy omil olinadi.² So'zlarni so'z turkumlaridan yuqoriroq bo'g'indagi tasnifida ularni mustaqil ma'noli va yordamchi ma'noli so'zlar kabi guruhlariga ajratib olamiz. Mustaqil ma'noli so'zlarning mohiyati shundaki, ular so'z ma'nolarini xilma-xil tur va tarzlarda ifodalashga xizmat qiladi. Yordamchi so'zlarda bunday nominativlik xususiyati mavjud emas. Demak, tilimizning leksik xazinasi, eng avvalo, so'z ma'nolarini ifodalovchi – mustaqil so'zlar va bunday qobiliyatga ega bo'lmagan – yordamchi so'zlardan tashkil topgan.

O'z navbatida, so'z ma'nolarini ifodalashga xoslangan so'zlar o'z ichida bu ma'nolar farqlanib ifodalanuvchi so'zlar guruhi va farqlanmay diffuz ifodalanuvchi so'zlar guruhiga ajratiladi. Birinchi guruhga an'anaviy *ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l* turkumiga mansub so'zlar kirsa, ikkinchi guruhni so'z ma'nolari kontekstual farqlanadigan, so'zning o'zida bu ma'nolar bir-biridan farqlanmagan so'zlar – *taqlidlar* tashkil etadi. So'zlarni turli usullarda tahlil qilish, ajrata olish antroposentrik tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarini o'rganishda ham qo'l keladi. Xususan, psixolingvistikada mavjud matnni anglash, sotsiolingvistikadagi muloqot, kompyuter lingvistikasidagi milliy til korpusini yaratish masalasi, sud-huquq tilshunosligidagi rasmiy hujjatlar, ish qog'ozlarining to'g'ri va tushunarli bo'lishi kabi jarayonlarda ma'no farqlash axborotning anglanishi, qabul qilinishini osonlashtiradi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, so'z ma'nolarini farqlash nafaqat nazariy tilshunoslikda uni grammatik o'rganish orqali, balki amaliy tilshunoslikda paydo bo'layotgan zamonaviy tushunchalar – pragmatika, semantik maydon, lingvistik ekspertiza singari jabhalarda qo'llash yordamida shakllanadi. Ushbu yo'nalishlarda ham leksik birliklar ma'nosini tahlil qilish, rivojlantirish soha vakillari ishini osonlashtirish, muammolarni kamaytirishda yordam beradi. Zero, jamiyat hayoti, ertasi, ma'naviyati-yu ma'rifati, siyosati-yu iqtisodi bizning xazinamiz bo'lgan so'z orqali aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

² Isoqov Z.S. So'zlarni turkumlarga ajratishning mantiqiy asoslari//O'zbek tili va adabiyoti.2003, 6-son. –B.79-81.

1. Qo'chqortoyev I. So'z ma'nosi va uning valentligi. – Toshkent: Fan, 1978. – B.168; O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981.
2. Isoqov Z.S. So'zlarni turkumlarga ajratishning mantiqiy asoslari//O'zbek tili va adabiyoti.2003, 6-son. –B.79-81.
- 3.Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish: filol.fanlari dokt. ... dis. avtoreferat. – Toshkent,1997.

